



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I**

### **Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligida joriy etilayotgan axborot tizimlarini ekspertizadan o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida kiberxavfsizlikni ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 15 iyundagi PQ-4751-son qarorining 6-bandiga muvofiq hamda 2022-yil 22-avgustdagi 357-son qarori bilan tasdiqlangan 2022-2023-yillarda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo‘yicha ustuvor loyihalar ro‘yxatining 77-, 78- va 79-bandlari ijrosini o‘z vaqtida ta’minlash, vazirlik rasmiy veb-saytini (uzedu.uz) axborot xavfsizligi hamda joriy etilayotgan 3 ta axborot tizimlarining texnik topshiriq talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizadan o‘tkazish maqsadida **buyuraman**:

1. Xalq ta’limi sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi Kengashining 2023-yil 10-noyabrdagi 9-sonli majlisi bayonida “Kiberxavfsizlik markazi” davlat unitar korxonasi (keyingi o‘rinlarda – “Kiberxavfsizlik markazi” DUK) tomonidan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy veb-saytini (uzedu.uz) axborot xavfsizligi hamda joriy etilayotgan 3 ta axborot tizimlarining texnik topshiriq talablariga muvofiqligi yuzasidan ekspertizasi bilan bog‘liq xarajatlar Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qoplanishi bo‘yicha tegishli qaror qabul qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi rasmiy veb-saytini (uzedu.uz) axborot xavfsizligi hamda joriy etilayotgan 3 ta axborot tizimlarining texnik topshiriq talablariga muvofiqligi yuzasidan “Kiberxavfsizlik markazi” DUKdan ekspertizadan o‘tkazilsin.

3. “Kiberxavfsizlik markazi” DUK tomonidan ekspertizadan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish bo‘limi (R.Musurmonov) shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar amalga oshirilganidan so‘ng ilovada keltirilgan veb-sayt hamda barcha axborot tizimlari bo‘yicha ekspertiza xulosalarini olish ishlarini tashkillashtirsin.

5. Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (F. Jamuratova)ga: vazirlik rasmiy veb-saytini (uzedu.uz) axborot xavfsizligi hamda joriy etilayotgan 3 ta axborot tizimlarining texnik topshiriq talablariga muvofiqligini ekspertizadan o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar Ta’lim sohasidagi islohotlarga ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan to‘lanishi ta’minlasin;

Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limiga ekspertizadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar uchun zarur bo'ladigan mablag'lar bo'yicha talabnomalarni belgilangan tartibda taqdim etishini ta'minlasin hamda xizmatlarni xarid qilish yuzasidan tuzilgan shartnomalarni g'aznachilikda ro'yhatdan o'tkazilsin va ushbu shartnomalar bo'yicha to'lovlarni kechiktirmasdan amalga oshirsin.

6. Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi faoliyatini tashkil etish bo'limi (I.Xoliqulov) Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi tomonidan aniq hisob-kitoblar bilan taqdim etilgan talabnomalarga muvofiq tegishli xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlasin.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari T.Komilov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X. Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil "29"-noyabr,  
551 -son